



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Komil Tashanov¹
Ergashev Maqsud²

¹Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, f.f.n.

E-mail: tash_kamil@mail.ru

tel: 91 577 37 43

²Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

2-kurs magistranti.

E-mail: MaqsudErgashev@umail.uz

tel: 91 235 77 95

ISAJON SULTONNING “HAZRATI XIZR IZIDAN” ASARIDA XIZR OBRAZINI YARATISHDAGI POETIK MAHORATI

***Annotatsiya:** Maqolada karomatlari bilan butun bir tiriklikning mushkulini yengillashtirgan, kelajakni oldindan ko'ra bilgan buyuk inson Hazrati Xizr hamda har bir insonning o'z ota-onasi Hazrati Xizrga teng ekanligi yozuvchi Isajon Sultonning “Hazrati Xizr izidan” qissasidagi Xizr obrazini yaratishdagi poetik mahorati tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Xizr, Muso, Qur'on, qissa, kema, devor, ota, ona, tulki, Donish domla.*

ПОЭТИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО ИСАДЖАНА СУЛТАНА В СОЗДАНИИ ОБРАЗА ХИЗР В ПОВЕСТИ “ПО СЛЕДАМ ХИЗИРА”

Аннотация: В статье анализируется поэтическое мастерство в создании образа облегчающего своими пророчествами трудности всей жизни, предвидевшего будущее великого человека Хазрата Хизра и обосновается, что родители каждого человека равен Хизру в повести «По следам Хизра» писателя Исаджона Султана.

Ключевые слова: Хизир, Мусо, Корон, история, стена, отец, мать, лиса, учитель Дониш.

ISAJON SULTAN'S POETIC SKILL IN CREATING THE IMAGE OF HIZR IN "HAZRATI XIZR IZIDAN"

Annotatsion: The article analyzes the poetic skill of the writer Isajon Sultan in creating the image of Hizr in the story "Hazrati Xizr izidan" who alleviated the problem of a whole life with his prophecies, foresaw the future and said that every person counts their parents as equal to Hizr.

Keywords: Hizr, Muso, The Qur'an, short story, ship, wall, father, mother, fox, Donish teacher.

«Shoyadki yoqtirmagan narsangiz siz uchun yaxshi bo'lsa. Va shoyadki yoqtirgan narsangiz siz uchun yomon bo'lsa. Alloh biladi, siz bilmaysiz» [1,34]

(Baqara surasi 216-oyat).

Kirish (Introduction). Hazrati Xizr haqida eshitmagan yoki Xizr ismi yetib bormagan birorta oila bo'lmasa kerak. Aslida Xizr kim? Eng avvalo biz shu savolga javob topmog'imiz lozim. Qadim-qadimdan insonsonlar biror qiynchilikka uchrasa yoki boshiga biror musibat tushsa, hayollaridan birinchi Hazrati Xizrni o'tkazishib, uning kelib bir karomat bilan hamma tashvishlarini yengillatishishiga ishonishgan. Xizr haqida afsona va rivoyatlar juda ko'pki, ularning qaysi biri haqiqatga yaqin-u, qaysi biri haqiqatdan yiroq ekanligiga qiynaladi kishi.

Hazrati Xizr haqida ma'lumot beradigan eng ishonchli manba bu "Qur'oni Karim"dir. Zero, "Qur'oni Karim" Ibrohim, Muso va Iso payg'ambarlar aytib

qoldirgan xabarlarini tasdiqlovchi kitobdir. Qur’oni Karimning “Kahf” surasida Hazrati Xizr haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xizrning ismi Bilyo ibn Milkon, kunyasi – Abul Abbos. U Isroil avlodidan yoki tarki dunyo qilgan shahzoda ekani, vafoti va hanuz tirik ekani to’g’risida turli naqlar bor. “Haqiqatni Alloh bilur. Bas, bandalarimizdan bir bandani (Xizrni) topdilar. Biz unga O’z dargohimizdan rahmat ato etgan va O’z huzurimizdan ilm bergan edik”. [1, 300-304]

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ato etilgan rahmatdan murod payg’ambarlik, ilm yoki uzoq umr ekani haqida turli fikrlar bor. Xizr payg’ambar bo’lganmi yoki valiyi degan savol tug’iladi. Ko’proq ulamolar serkaromat valiy bo’lganliklarini ta’kidlaydi. «Xizr» yoki «Xazir» so’zining lug’aviy ma’nosi yashil rangli ko’karib turgan giyohdir. Hadisda: «Xizr deb nomlanishiga bois u oq po’stakka o’tirganida uning ostidan giyoh unib chiqib, uni ko’tarib yuborgan», – deyilgan. [2,90] Qur’onda Xizr alayhissalom “Xizr alayhissalom” emas, balki “solih banda” deb atalgan. Ana shu qissada Muso alayhissalom bir kuni Bani Isroil ichida va’z-nasihat, ma’ruza qilib turganlarida kishilardan biri “Ey Muso, dunyoda sizdan ham bilimdonroq odam bormi?” degan savolni berdi. Shunda Muso alayhissalom javob bera olmay biroz o’ylanib qoldilar. Mana shu holatdan keyin Alloh taolo “Har biluvchining ustidan biluvchiroq bordur” [1,244] degan xabarni berib, Muso alayhissalomga u kishidan ko’ra bilimdonroq odam borligi, uni izlab topish zarurligi, topgandan keyin u kishidan ba’zi bir narsalarni o’rganish kerakligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Qur’onda Xizr alayhissalomni “solih banda” deb atalgan oyatlarning tafsirida Imom Buxoriy keltirilgan solih bandani “Hazr” deb ataydi. Biz shundan Xizr alayhissalom borligi, Qur’onda “solih banda” nomi bilan esga olinganligi va sahih hadislarda “Xizr” nomi bilan tanilganliklari kelib chiqadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yozuvchi Isajon Sultonning “Hazrati Xizr izidan” qissasidagi Xizr obrazining poetik talqinlari o’ziga xosdir. Qissada Hazrati Xizrning portret tasviri quyidagicha keltirilgan: “Aytadilarki, taxminan oltmish – yetmish yoshlar orasidagi tik qadli bir chol edi.” [3, 153]

Asarning qaysi o‘rinida Xizr obrazi gavdalansa, uzun yashil to‘n kiyib olgan chol deb tasvirlanadi. Xizr obrazi qozoq folklorining «Ər nərse tegine tartadı» naqlida yosh bola ko‘rinishida keladi. [2, 89]

Yozuvchining Xizr obrazini yaratishdagi yutug‘i bu “Qur’oni Karim” va xalq og‘zaki ijodi namunalarida keltirilgan siymoni badiiy usulda gavdalantirganidir. Asarda Xizr faqatgina insonlar mushkulini yengil qilmasdan, dunyoda nimaiki tirik jon borki, hammasining mushkulini yengillatishga harakat qilgan. Buni qissadagi Qizilqumdagi jayron, Dashtu Tuzdagi tulki va Tog‘lar orasidagi kiyik voqealarida ko‘rishimiz mumkin. “Hech kimga kerakmas bir tulkini qutqaribdi, bir kiyik bolasiga yordam beribdi... Xo‘sh nima bo‘libdi?” [3,168] Bu o‘rinda biz Xizrga emas, tulki va jayronga diqqat qaratmoqchimiz. Yozuvchi bu o‘rinda tulkini nima uchun qutqarganini Shoymardon chol tilidan keltirib o‘tadi. Tulkining to‘rtta bolasi bor ekanligini va agar o‘sha tulkini qutqarmaganida bolalari ochlikdan o‘lib ketishi aniqligi keltirilgan.

Yozuvchining ta’kidlashicha: “Insoniyat olamda Xizr atalmish bir banda borligidan Hazrati Muhammad tufayli xabar topdi”, [4, 162] – deb yozadi. Shundan bizga ma’lum bo‘ladiki, Hazrati Muhammad davrigacha Xizr alayhissalom bo‘lganligi haqida hech qanday ma’lumotlar uchramagan.

Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz bizlarga yuqtirgan, yod bo‘lib qolgan bir gap bor: “Har kuni erta tursang xudo rizqini mo‘l beradi”, - degan. Yozuvchining ta’kidlashicha, o‘sha rizqini Alloh Xizr orqali beradi. “Yana, har sahar turganingda darvoza eshigini albatta qiya ochib qo‘y. Odamlar uyqudan uyg‘onib uyg‘onmagan mahal Xizr buva toza, sarishta xonadonlarga rizq ulashib o‘tadi, betartib, qarovsiz uylarga esa qarab ham qo‘ymaydi...” [3, 176] Yozuvchining badiiy-estetik mahorati shundagi oddiygina haqiqatni o‘quvchisiga jo‘ngina so‘zlarda yuqtirib, uning shuurini uyg‘otib, ma’naviy olamini yangilaydi. Nega aynan toza va sarishta uylargagina rizq berishini izohlaydi.

Qissada Xizr alayhissalom Muso va Iso payg‘ambarlar bilan ko‘rishganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. “Qur’oni Karim”da esa Muso va Xizr uchrashishi quyidagicha keltiriladi. “Ana shundan keyin Muso alayhissalom xizmatchi yigitlari

bilan birga oziq-ovqatlarni olib yo'lga chiqadilar va Alloh aytgan joyda o'sha solih bandani izlab topadilar.”[4, 2] Isajon Sulton Xizr alayhissalomning Muso va Iso payg'ambarlar bilan ko'rishganini bitta o'rinda keltirib o'tadi. Ya'ni qissada Muso alayhissalomning shogirdi qilib Iso alayhissalomni ko'rsatgan. Bu asarning saviyasini yana bir bor oshirgan desak mubolag'a bo'lmaydi. “Oldindagi kishining ismi Muso, ortdagi savat ko'tarib olgan xizmatkorning ismi esa Iso Navin edi.” [3,185] Shu o'rinda Iso Navinning aynan payg'anbar ekanligini isbotlash uchun uning karomatlaridan misollar keltirilib va aynan karomat kelgan joy Muso va Xizr uchrashadigan joy hisoblangan. Asarda Iso Navin karomatlari paydo bo'lgan vaqtda bunday karomat borligidan uning xabari ham bo'lmagan. “Shundan so'ng undan ham g'aroyibi ro'y berdi. Tuzlangan baliqqa jon kirib, suvda suzib ketdi. Ammo suzib o'tgan yo'li qandoq bo'lsa shundoqligicha qolaverdi.”[3, 186] Iso Payg'ambarning karomati aynan o'liklarga jon ato etish bo'lgan.

“Qur'oni Karim”da Xizr va Muso alayhissalomlar birga kemaga chiqadi va o'sha kemani Xizr teshishi voqeasi keltirilgan. Bu esa Muso alayhissalomga yoqmay, “bizga yaxshilik qilgan odamlarning kemasini nega teshasiz,”-deb so'raydi. Yozuvchi qissada bu voqeani tasvirlashda badiiylikka yodoshgan xolda kemani dengizda emas, to'xtab turgan vaqti teshadi deb keltiradi va o'sha kema axolisini butparaslar deya keltirgan.

Xizr alayhissalomning bir bolani o'ldirishidagi voqeada ham har xillik mavjud. Ba'zi manbalarda Xizr bolani bir urib o'ldirib qo'ydi deb aytilsa, Isajon Sultan Xizr alayhissalomni buyuk inson ekanligini yana bir bor ko'rsatib berishga harakat qiladi. Ya'ni “Nomalum zot kulimsiradi. Lom-mim demasdan bolaning boshini silagan edi, u shilq etib yoniga yiqildi.” [3, 192] Bundan biz yozuvchining naqadar mahoratli ekanligini ham kuzatishimiz. Chunki yozuvchi bola va novvoy suxbatini ko'rsatib, bolaning kelajakda yovuzliklar qilishi mumkinligini ham ko'rsatmoqchi bo'lgan.

Yozuvchi mahoratini, biz yuqorida ta'riflab ketganimizdek, xalq og'zaki ijodi va “Qur'oni Karim”da keltirilgan qissalarni uyg'unlatgan holda kitobxonga ajoyib asar yarata olganini qissadagi devor voqeasida ham ko'rishimiz mumkin. Muso va solih banda bir qishloqqa kelishib taom so'raydilar, o'zlarining musofir ekanliklarini

aytadilar. Lekin u joyning aholisi mehmon qilmaydilar, taom ham berishmaydi. Horib-charchab shaharning tashqarisiga chiqib o'tirganlarida ko'zlari yiqilib ketay deb turgan devorga tushadi. Solih banda turib Muso alayhissalomni ham chorlab haligi devorni yiqitib qayta qurib qo'yadilar. [4, 2] Shu o'rinda yozuvchining naqadar baddiy so'zga usta ekanligini quyida keltirilgan jumladan bilib olishimiz mumkin. "Bu kishi hech bir zo'riqishsiz, ortiqcha harakatlarsiz bajargani ajab. Go'yo yoniga borsa, toshga jon kirib, o'z-o'zidan ergashib kelaverdi." [3, 193] Bu bilan yozuvchi Hazrati Xizrning naqadar karomatli inson ekanligini yana bir bor ko'rsatishga harakat qilgan. Ya'ni karomatli insongina toshga jon ato etaladi degandek. Bu ishlarni kuzatib turgan Muso alayhissalom: "- Xudo haqqi, sabrim chidamadi! – dedi Muso Alayhissalom va barcha ishlarni tushuntirib berishini so'raydi.

"Hazrati Xizr izidan" qissasi o'zgacha tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, Xizr alayhissalom kelajakni oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega. Shu sababdan ham kemani teshganligi, bolani o'ldirishi va devorni qurishi sabablarini tasvirlar ekan, bolani o'ldirish sababini yozuvchi quyidagicha ifoda etadi. "Tangri taolo menga kelajak voqelarini bildirdi agar o'sha kishi bo'lmaganida, men halok bo'lib ketardim." [3, 197] Va jannatga tushganligi haqida ota-onasining tushiga kirib bildiradi. "Qur'oni Karim"da uning taqdiriga kofir bo'lish yozilgan edi. "Haligi bolaning esa, ota-onasi mo'min kishilar edi. Bas, biz u (bola) tug'yon va kufr bilan ularni qiynab qo'yishdan qo'rqdik." (Kahf surasi 80-oyat) "Shu sababdan, ularga Parvardigorlari u (bola)dan ko'ra pokizaroq va undan ko'ra mehribonroq (boshqa bir bolani) badal (evaz) qilib berishini istadik" (Kahf surasi 81-oyat). Oyatning tafsifida bayon etilishicha, Xizr bolani o'ldirgan vaqtda Alloh taolo uning onasiga homila ato etgan edi. Vaqti soati yetib qiz bola tug'iladi. Voyaga yetgach o'sha davrning payg'ambariga turmushga chiqadi va uning zurriyotidan yetmishta payg'ambar chiqadi.

Devor voqeasi tasvirida xalq og'zaki ijodi nisbatan ustuvor desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Chunki asarda boyliklarning egasi bitta yetim bola va o'sha bolaning ismi Shiddat deb keltiriladi. Bizningcha bu o'rinda Isajon Sulton Allohning

naqadar karomatli ekanligini devorga gapirishni ato qilganini aytib ko'rsatmoqchi bo'lgan. "Qur'oni Karim"da esa boyliklar ismi keltirilmagan ikkita yetim bolaning haqqi ekanligi e'tirof etilgan. Shu yetim bolalarning otasi yaxshi odam bo'lgani bois ikki aziz bandasi – avliyo va Payg'ambarlarni Alloh, xatto Qur'onda ismi keltirilmagan, nomalum bo'lgan ikki yetim bolaga tekin mardikor qilib qo'ydi. Chunki, ularning otasi solih inson bo'lgan. [5, 1]

Yuqorida bergan savolimizga yana bir bor yuzlanmoqchimiz. Ya'ni Xizr aslida kim? Hozirda ham Xizr tirikmi? Agar tirik bo'lsa, nima uchun hech kim ko'rmaydi? Bizga ma'lumki, Xizrning karomati keljakni oldindan bilish bo'lgan. Shu nuqtai nazardan yozuvchi Xizr tirik va har doim bizni kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan havf-xatarlardan ogohlantirib turadi va bizga yo'l-yo'riq ko'rsatib turadigan ota-onamizdir deb javob bergan.

Haqiqatdan ham yozuvchi to'g'ri aytmoqda. Hammamizni ota-onamiz yoshligimizdan bizga nima ish qilsak bizga yaxshi bo'ladiyu, nima ish qilsak yomon bo'lishini tushuntirib kelgan. Har bir ota-ona uchun farzandi necha yoshga kirmasin yosh bola bo'lib qolaveradi. Ba'zan bizni ko'p tergap yuborishsa, bizga yoqmay jerkib tashlaydigan vaqtimiz ham bo'ladi. Yozuvchi Donish domlaning ota degan muqaddas zotga bergan ta'rifidan, uning otasiga bo'lgan mehrini bilsak bo'ladi. "Ota – taqiqlarning va cheklovlarning eng beshavqatidir. Qarang, fikrlarimiz o'zimizga qarshi chiqmoqda. Siz rizqlarni Tangri taolo beradi deysiz-u, "meni yedirib ichirib kata qilgan otam" deb mehr qo'yasiz... Shundoq ekan, akayu ukalar, opayu singillar, tog'ayu amakilar, qavmu qarimdosha deganlarining bari botil, keraksiz hukmlardir. Har biri o'z hayotini yashashga haqli." [3, 212] Afsuski, oramizda bunaqa fikrlaydiganlar ham topilib turadi. Ammo shu narsa bizga ma'lumki, ota-ona hech qachon o'z farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. "Eh, nodon! Oyog'i og'rishining sababini keyinchalik bildim. Men bir yarim yasharligimda, qattiq shamollab ko'k yo'tal bo'lganimda to'shakka o'rab, to'rt chaqrim yo'lga piyoda olib borga, u yerda tabib chol bir nimani ezib ichkizgach, tomoq og'rig'im barham topgan, yana shuncha yo'lda bag'riga bosib ko'tarib kelganu o'zi yiqilib qolgan edi." [3, 220]

Aynan “Qur’oni Karim”da keltirilgan devor qissasida ham otasi solih banda bo‘lgani uchun ikki yetimga xazina qolganligini ham unutmalgimiz kerak.

Ona - buyuk zot. Uning oldida hatto avliyolar ham tiz cho‘kib ta’zim qiladi. Biz ona haqida qancha yozsak ham kam. Ona shunday zotki, farishtadek beazor. Ona ta’rifini bermagan biror-bir yozuvchi yoki biror-bir shoir bo‘lmasa kerak. Shu o‘rinda yuqorida keltirib o‘tgan, Xizr qutqarib qolgan hayvonlar ko‘z oldimizga keladi. Chunki jayron o‘z bolasi yonida qutqarolmay halak bo‘layotgani, to‘rtta bolasi bo‘lgan tulki voqeasi orqali yozuvchi ona siymosini gavdalantirmoqda. Yozuvchi Isajonn Sultonning o‘zgachaligi va eng katta yutug‘i shu desak hech yanlishgan bo‘lmaymiz. “Ayting-chi, siz ham shunaqa o‘ylab qolasizmi? Balki, mening aqlim yetmaganlarga sizning aqlingiz yetar? Dunyoda nima uchun kelgan edim? Qush ham, hayvon ham bolam-chaqam deb tirishadi. Bir inson bo‘lib dunyoga keldim, qushdan, hayvondan ortiq joyim bormi?” [3, 228] Yuqorida Xizrning hozirgi ko‘rinishi deb ota-ona deb ta’kidladik. “Jannat onalar oyog‘i ostida” deydilar, ayting, qaysi avliyoning oyoqlari ostida tashlab qo‘yilgan ekan jannat? [3,229] Rostan ham yaxshilab o‘ylab qaralsa, ona degan zot biz uchun hamma narsaga tayyor, o‘z jonidan kechsa ham bizni o‘ylaydi, har doim qo‘llari bizni duo qilish bilan band. “Hoy, onalari tirik zotlar, Baraka topkurlar! Tirikchilik yumushlaringizni bas qiling, chopping, joningiz boricha yuguring, qoshiga yetib boring, nursiz ko‘zlariga birdam termuling – sizga mehru muhabbat to‘yib-to‘yib boqqan, peshonangizdan isni iskab “O‘rgilay, bolajonim jannat isi keladi-ya” deb quvongan, siz uchun jonini fido qilib yuborganu evaziga faqat sizning diydoringizni tilaydigan bittaginazot bor dunyoda!...Boring, xudo hayringizni bersin, axir jannatning boshqa kaliti yo‘q!” [3, 229-230] Yozuvchi onalarimiz dunyodan o‘tsalar ham bizni o‘ylab duolar qilishi va biz yaxshi yashasak ularning ko‘ngli xotirjam bo‘lishi haqida ham keltirib o‘tgan. “Hoy, onalari dunyodan o‘tib ketganlar! Onalarning nigohi doimo bolalarida bo‘ladi. Parvardigori olam maxfiy tutgan ekan, uyoqq duolargina yetib borishini unitmang... Qaydan ham bilardingiz, jahannam o‘ti lo‘ng‘illaganida “Uni hargiz bolamga ro‘para qilma” deb yolvoradigan bittagina zot bor, xolos!” Bu bilan yozuvchi onalar o‘zi jahannam o‘tiga tushsalar ham hech

qachon farzandlarini bu joyga tushushini xohlamasligini aytib o‘tgan. Haqiqatan ham e‘tibor berib qarajak onalarimiz biz ishdan yo o‘qishdan kelishimizni intiqib kutib ovqatlanmay o‘tirishadi. Agar ozroq kechiksak qayta-qayta telefon qilib tinchlikmi deb havotir olishini, uyga kech qaytib nega ovqatizni yemadingiz deb so‘rasak, sensiz tomog‘imdan o‘tmadi deyishlari har birimizning boshimizdan o‘tgan bo‘lsa kerak.

Ota-ona naqadar biz uchun muqaddas zot! Ota-onalari bu yorug‘ dunyoni tark etgan insonlarga hech nazar solganmisiz? Agar yaxshilab qarasangiz, u insonlar o‘zining opa-singillariga, aka-ukalariga mehri yanada ortganini va ularni tez-tez izlab turishining guvohi bo‘lasiz. Bunga sabab esa ota-onasining nigohi aynan o‘shalarda saqlanib qolgan bo‘ladi. Aynan yozuvchi shu mavzuni “Aka qissasi”da juda chiroyli ochib bergan. “Qolaversa, uning yuz-ko‘zlarida ham otayu ona chehrasi naqshlanib turadi. Ancha vaqt bo‘ldi, bormasam bo‘lmas, deb o‘yladi aka. Shu sababli yo‘lga chiqdi.” [3, 217] Bu bilan yozuvchi ota-onasini qattiq sog‘ingan akaning o‘z singlisini ko‘rgani borishi va singlisi orqali ota-onasining diydorini ozroq bo‘lsa ham topmoqchi ekanligini uqtiradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Isajon Sultonning “Hazrati Xizr izidan” asari bir so‘z bilan aytganda o‘ziga xos yozilish usuli va xalqonaligi bilan ajralib turadi. Asarda, guvohi bo‘lganimizdek, o‘tmish va bugungi kun uyg‘unlikda tasvirlangan. Bunda yozuvchi “Qur’oni Karim” va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan keng foydalangan. Asarning bosh g‘oyasi ota-onani ulug‘lashdir. Yozuvchi bu g‘oya atrofiga esa ko‘plab buyuk zotlarni bitta joyga jamlagan. To‘g‘ri, Hazrati Xizr ham har bir insonga yordam beradi, ammo har doim ham bizga kerak bo‘lgan vaqtda yonimizda bo‘lavermaydi. Dunyoda shunday buyuk zotlar borki, ular hech qachon bizlarni tashlab ketmaydi. Hattoki, yozuvchi ta’kidlaganidek, ota-onalarimiz bu yorug‘ olamni tark etsalar ham, bizlarni o‘ylab duo qilishadi. Shunday ekan, ota-onalarimiz qaysi Xizrdan kam emas. Demak, biz ota-onalarimizni ikkilanmasdan Hazrati Xizr deb ataymiz. Fikrimizni asarda keltirilgan gap bilan yakunlamoqchiman. Zeroki, bu gaplar yuqoridagi barcha fikrlarni dalolatlaydi. “Ey voh, har narsa qoshu qarog‘imda ekanu

g‘oyibdan kutibman, Xizrlarim yonimda ekan-u, boshqaga ko‘z tikibman... kelajagini menda ko‘rgan, qancha yillar boshim uzra beminnat soyabon otam... allaqachon Xizr maqomida ekanini bilmabman-ku!... Tepamda ko‘zlari kirtayib tunlarni o‘tkazgan, keksayganida ham og‘zimga qarab turadigan, “ichinga issiq kirsin” deb bir nimalarni qiynala-qiynala pishirib og‘zimga tutgan onaizorim-chi!.. Xizrlarimni tuproqqa berganimdagi faryodimni bir o‘zimu Yaratgan biladi.” [3, 233-234]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Abdulaziz Masur. Qur‘oni Karim. –T.: Islom Universiteti matbaa birlashmasi, 2014.
2. Bekchanova S. O‘zbek-qoraqalpoq folklorida naql janri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2019.
3. Isajon Sulton. Hazrati Xizr izidan. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Islom.uz
5. Ziyoz.uz